

**MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISHDA KASBIY
KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH**

Mamatova Sayyara Shavkatovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

sayyaramamatova87@gmail.com

Annotasiya. Kasbiy kompetentlik har bir mutaxassisning kasbiy faoliyatida sohasining samaradorligini ta'minlaydigan tushunchadir. Bu tushuncha kasbiy bilimga erishish, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish va ularni amalga oshirishga yordam beradi. Texnik oliy ta'limning mutaxassislik fanlarini o'qitishda kasbiy kompetentlikni shakllantirish.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, kompetentlik, zamonaviy ta'lim, noan'anaviy vaziyatlar.

“Kasbiy kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar, ijodiy va psixologik izlanishlarning natijasi sifatida kirib kelgan. Jumladan, N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayevlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikka quyidagicha ta'rif beriladi: “Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi”. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning pedagogik kasbiy kompetentlikka ega bo'lishlarining asosi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: doimiy tarzda o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; axborot vositalaridan foydalaniib yangi axborotlarni o'zlashtiradi; zamonaviy talablarni chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularga kreativ yondoshib, qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi; murakkab jarayonlarda noaniq vazifalarni bajarish va to'g'ri qarorlar qabul





qilishda; bir-biriga zid ma'lumotlardan oqilona va o'rini foydalanishda; kutilmagan vaziyatlarga moslashuvchan harakat rejasiga ega bo'la olishda.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli, kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kompetentlik va kompetensiya inson umri davomida, faoliyatida u bilan hamohang yashaydigan tushunchalardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Kompetentlik – bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, rahbarliknifaoliyatiga sindirib borishdir. Kompetensiya esa bu – qobiliyat har qanday faoliyatda o'z qobiliyat va iqtidorlarini ko'rsata bilishdir.





**Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon
bo'ladi**

murakkab jarayonlarda

noaniq vazifalarni bajarishda

bir-biriga zid ma'lumotlardan
foydalanishda

kutilmagan vaziyatda harakat
rejasiga ega bo'la olishda

Texnik oliy ta'limning yengil sanoat muhandisligi yo'nalishidagi mutaxassislik fanlarini o'qitishda kasbiy kompetentlik o'qituvchining nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko'nikmalarga, texnologik yangiliklarga va o'quvchilar bilan samarali ishslash qobiliyatiga ega bo'lishi orqali namoyon bo'ladi.

Kasbiy bilim berish va kasbiy kompetentlikni oshirishda o'qituvchi:

- ✓ tikuvchilik texnologiyalari, matolar xossalari, ishlov berish usullari haqida chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo'lib, bularni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazadi;
- ✓ amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda, o'quvchilarga kiyim yaratishning barcha bosqichlarini (eskizdan tayyor mahsulotgacha) o'rgatadi;
- ✓ zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda, yengil sanoatdagi yangi tikuv uskunalari, CAD dasturlari (kompyuterda kiyim dizaynnini yaratish) va boshqa texnologiyalarni dars jarayoniga joriy qiladi;
- ✓ o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda, dizayn yaratish, estetikani his qilish, mijoz talablari asosida model yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- ✓ ishbilarmonlik va kasbiy etikani singdirishda, o'quvchilarda mas'uliyat, mehnatsevarlik, sinchkovlik va jamoada ishslash madaniyatini shakllantiradi;



- ✓ kasbga hurmat, mijoz bilan muloqot qilish madaniyati bo'yicha tarbiyaviy ish olib boradi;
- ✓ kasbiy rivojlanishda namuna bo'ladi, o'qituvchi o'z ustida ishlaydi: yarmarkalarda, ko'rgazmalarda, seminar va malaka oshirish kurslarida qatnashadi va o'quvchilarga o'z tajribasi asosida motivatsiya beradi.

Qanday sohada ekanligiga qaramasdan har bir mutaxassis o'z kasbiga nisbatan katta mehr va qiziqish bilan yondoshsa, turli holatlar va favqulotda vaziyatlardan ijobjiy natija bilan chiqib keta olsa, bu shaxs o'z kasbiy kompetentligini shakllantira olgan mutaxassisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назарова Н.М. Специальная педагогика. М.: «Академия», 2005. С
2. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh., Kasbiy kompetentlik /. - Toshkent, 2022
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B., Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari /. - Toshkent, 2015
4. To'xtayeva Z.Sh., Aripjanova M.A., Mutaxassislik fanlarini o'qitishda "Flipped Learning" metodidan foydalanish samaradorligi /. Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali. 2024/4/4. №3. 350-352